## TOSHKENT VILOYATINING
## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

*(2019 yil yanvar-iyun)*

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 8588,4 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 784,0 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 3,3%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 7014,4 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 6,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 790,0 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,0 %) tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)**




2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Olmaliq va Bekobod shaharlari, Zangiota va Qibray tumanlarida qayd etildi.

## Jami viloyat Chakana savdo aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, *(%)*




## Chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari, *(%)*



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 %ga o`sdi va 784,0 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,1 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 7014,4 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 5,8 %ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,7 %ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,** *(%)*



## Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, *(%)*




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Nurafshon shahri (94,0%), Oqqo`rg`on tumani (94,2%), Yangiyo`l shahri (91,0%), Bostonliq tumani (88,5%), Parkent tumani (88,7%), Yangiyo`l tumani (91,0%) va Piskent (84,0%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 9,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (31,3%), Bekobod shahri (21,5%), Toshkent tumani (16,7%), O`rtachirchiq tumani (13,1%), Yuqorichirchiq tumani (12,5%), Qibray tumani (8,7%), Chirchiq shahri (11,8%), Ohangaron shahri (16,6%) tumanlarida kuzatilgan.

## Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

| Hududlar nomi | Yirik korxonalar (mln.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| **Toshkent viloyati** | **784023,9** | **103,3** | **7014420,3** | **105,8** |
| Nurafshon sh. | 571,5 | 131,2 | 320068,5 | 152,8 |
| Olmaliq sh. | 99148,9 | 108,0 | 614928,7 | 104,0 |
| Angren sh. | 26710,6 | 123,4 | 351637,3 | 101,5 |
| Bekobod sh. | 101076,2 | 192,2 | 341607,4 | 92,1 |
| Ohangaron sh. | 26454,5 | 94,9 | 108200,5 | 107,2 |
| Chirchiq sh. | 54078,9 | 113,6 | 349969,7 | 103,5 |
| Yangiyo`l sh. | 13829,8 | 86,2 | 378634,1 | 103,0 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqqo`rg`on | 4631,8 | 82,6 | 302059,5 | 103,3 |
| Ohangaron | 4729,7 | 213,5 | 117983,0 | 102,9 |
| Bekobod | 12519,2 | 437,9 | 165498,3 | 99,4 |
| Bo`stonliq | 20367,1 | 71,1 | 338034,2 | 107,7 |
| Bo`ka | 10265,2 | 88,5 | 226905,5 | 105,5 |
| Quyichirchiq | 2278,7 | 91,8 | 127233,4 | 103,6 |
| Zangiota | 49553,0 | 95,4 | 952174,5 | 105,6 |
| Yuqorichirchiq | 41728,8 | 50,5 | 274343,4 | 124,4 |
| Qibray | 54931,4 | 72,5 | 492253,3 | 110,5 |
| Parkent | 13329,8 | 131,1 | 289350,4 | 105,3 |
| Piskent | 7077,1 | 101,7 | 157806,5 | 104,4 |
| O`rtachirchiq | 22067,3 | 88,1 | 134896,7 | 108,4 |
| Chinoz | 116992,3 | 122,3 | 231977,5 | 99,2 |
| Yangiyo`l | 16199,5 | 130,4 | 362341,9 | 102,7 |
| Toshkent | 85482,7 | 98,0 | 376515,9 | 108,6 |

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi,** *(%)*




2019 yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 2953,6 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2%ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyun oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Yangiyo`l shahri (7094,3 ming.so`m), Zangiota tumani (5736,9 ming. so`m) va Olmaliq shahri (5989,0 ming.so`m) hissasiga to`g`ri keladi.

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| Hududlar nomi | Ming so`m | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **2953,6** | **104,2** |
| **Nurafshon sh.** | 7047,0 | 147,1 |
| **Olmaliq sh.** | 5989,0 | 102,8 |
| **Angren sh.** | 2385,2 | 101,3 |
| **Bekobod sh.** | 4981,1 | 102,9 |
| **Ohangaron sh.** | 4288,9 | 102,7 |
| **Chirchiq sh.** | 2929,2 | 103,9 |
| **Yangiyo`l sh.** | 7094,3 | 101,3 |
| ***tumanlar:*** | | |
| **Oqqo`rg`on** | 3091,3 | 101,5 |
| **Ohangaron** | 1428,1 | 103,1 |
| **Bekobod** | 1297,3 | 102,9 |
| **Bo`stonliq** | 2278,6 | 103,5 |
| **Bo`ka** | 2186,1 | 102,3 |
| **Quyichirchiq** | 1437,6 | 101,4 |
| **Zangiota** | 5736,9 | 103,8 |
| **Yuqorichirchiq** | 2507,6 | 103,0 |
| **Qibray** | 3176,3 | 103,3 |
| **Parkent** | 2137,0 | 103,9 |
| **Piskent** | 1878,2 | 102,5 |
| **O`rtachirchiq** | 1146,7 | 103,1 |
| **Chinoz** | 2837,6 | 104,0 |
| **Yangiyo`l** | 1920,3 | 102,0 |
| **Toshkent** | 2874,7 | 104,6 |




Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,6 %ni tashkil etib, 227,3 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 8,6 % oshgan. Bunda jami savdo aylanmasining 78,9 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

## TOSHKENT VILOYATINING
## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
*(2019 yil yanvar-iyun)*

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 3431,4 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,1 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko`ra, 1874,7 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 54,6 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichni tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, O`rtachirchiq (98.3%), Chinoz (89.5), Bekobod (71.5%), Qibray (79.8%) tumanlarida va Olmaliq shahrida (19.8) yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarning**
**ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi,** *(%)*




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi 45,4% ni tashkil etdi, kichik korxonalarning ulushi katta bo`lgan Ohangaron tumani (100,0%), Angren (99,9%) shahrida va Yangiyo`l (99,9%) tumanida kuzatildi.

## Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

| Hududlar nomi | Jami (mlrd.so`m | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Yirik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | |
| **Toshkent viloyati** | **3431,4** | **99,3** | **1874,7** | **89,3** | **1556,7** | **103,3** |
| **Nurafshon sh.** | 17,4 | 101,9 | 0,1 | 51,2 | 17,3 | 102,1 |
| **Olmaliq sh.** | 71,7 | 99,6 | 14,2 | 23,7 | 57,5 | 102,7 |
| **Angren sh.** | 26,0 | 102,4 | 0 | 16,6 | 26,0 | 103,4 |
| **Bekobod sh.** | 36,5 | 100,2 | 0,1 | 14,5 | 36,4 | 103,6 |
| **Ohangaron sh.** | 22,7 | 102,4 | 0 | | 22,7 | 102,6 |
| **Chirchiq sh.** | 72,2 | 101,2 | 4,0 | 102,1 | 68,2 | 104,7 |
| **Yangiyo`l sh.** | 97,3 | 106,3 | 0,4 | 566,3 | 96,9 | 105,5 |
| ***tumanlar:*** | | | | | | |
| **Oqqo`rg`on** | 3,1 | 98,7 | 0 | 5,3 | 3,1 | 101,5 |
| **Ohangaron** | 22,3 | 102,3 | 0,2 | 65,6 | 22,1 | 102,8 |
| **Bekobod** | 39,5 | 206,9 | 28,3 | 105,5 | 11,3 | 99,0 |
| **Bo`stonliq** | 37,3 | 89,6 | 0,2 | 3,2 | 37,0 | 102,2 |
| **Bo`ka** | 17,0 | 101,9 | 0 | 64,5 | 17,0 | 102,0 |
| **Quyichirchiq** | 13,4 | 101,4 | 0,1 | 66,6 | 13,3 | 101,7 |
| **Zangiota** | 367,6 | 101,9 | 4,5 | 9,6 | 363,0 | 103,0 |
| **Yuqorichirchiq** | 67,9 | 129,2 | 9,8 | 1098,3 | 58,1 | 102,4 |
| **Qibray** | 754,6 | 89,3 | 601,9 | 85,7 | 152,7 | 104,0 |
| **Parkent** | 55,7 | 106,5 | 0,8 | 869,4 | 55,0 | 104,6 |
| **Piskent** | 19,3 | 100,6 | 0 | 11,9 | 19,3 | 101,8 |
| **O`rtachirchiq** | 961,3 | 124,8 | 944,7 | 98,9 | 16,6 | 102,0 |
| **Chinoz** | 282,5 | 58,5 | 253, | 89,8 | 29,5 | 101,7 |
| **Yangiyo`l** | 95,1 | 105,4 | 0,1 | 47,7 | 95,0 | 105,9 |
| **Toshkent** | 350,9 | 101,7 | 12,3 | 92,9 | 338,7 | 102,5 |

## Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)




Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o’sish sur`ati Chinoz (58.5 %) tumanida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo`limi**
**Tel.:71-230-86-59**